

TILSHUNOSLIK FANINING TARAQQIYOTI HAMDA TA'RIFI VA TASNIFI

Abduraxmonova Munisa G'ulom qizi

TerDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Tursunov Jahongir

TerDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tilshunoslik fanining taraqqiyoti, ta'rifi va tasnifi, o'zbek tilining rivojlanish bosqichlari hamda yurtimizda tilning rivojlanishiga qaratilayotgan e'tibor bilan bir qatorda o'zbek tilining davlat tili ekanligi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik fani, o'zbek tilshunosligi, davlat tili to'g'risidagi qonun, konsepsiya, tilshunoslikning taraqqiyoti.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda o'zbek tilini to'laqonli joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoniga muvofiq,¹ "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu konsepsiyada, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini saqlash kabilar nazarda tutiladi.²

Tilshunoslik — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. Tilshunoslik muammolarini o'rganish dastlab Qadimgi Hindistondan boshlangan. Qadimgi Hind tilshunosligi mil. avv. VI asrdan oldin yaratilgan vedalarni til nuqtai nazaridan sharxlash natijasida vujudga keladi va mil. avv. V—IV asrlarda yashagan Paninining grammatikasi tufayli yuksaklikka ko'tarildi. Bu asarda sanksrit fonetikasi va grammatikasi tavsif etilgan.

Yunonistonda esa til mantiqqa bog'liq holda, shuningdek, uning grammatik qurilishi nuqtai nazaridan o'rganilgan. So'zlarni turkumlarga ajratish Aristoteldan boshlangan. Shu tariqa yunon tilshunosligi asosida lotin tilshunosligi vujudga keldi. Bundan so'ng VIII-IX asrlarda arab tilshunosligi rivojlandi.³

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasining "2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"

³ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>;

Kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilni tilshunoslik fani o'rganadi. Aynan shu tilshunoslik fanining bir qancha tarmoqlari mavjud: . Ekstralingvistika (ekstra – tashqi, lingvistika – tilga xos) tildan tashqarida, ammo bevosita til bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarni o'rganadi. I. Ekstralingvistika quyidagi tarmoqlarga ajraladi: 1) Sotsiolingvistika. Bunda tilning tabiati va ijtimoiy vazifasi, ijtimoiy taraqqiyot sharoitlari o'rganiladi. 2) Metalingvistika. Bunda tilning tafakkur bilan, gapning fikr bilan o'zaro bog'liqligi, farqli tomonlari, tilning mazmun tomoni, nutq faoliyati, til birliklarining matn va sharoit bilan aloqasi o'rganiladi. II. Intralingvistika. Bunda tilning ichki tizimi, uning birliklari va kategoriyalari, tilning fonologik, leksikologik va grammatik qurilishi, taraqqiyot yo'llari o'rganiladi.

III. Komparativistika. Bunda tillar qiyosiy tarzda o'rganiladi.

O'zbek tili - turkiy tillar turkumining oltoy tillari oilasiga mansub bo'lib, uning paydo bo'lishi uzoq yillarga borib taqaladi. O'zbek tilining o'rganilish tarixini 4 davrga bo'lish mumkin. Bunga quyidagilar kiradi: I. XI-XIV asrlar (qadimgi turkiy tilshunoslik);

II. XV-XIX asrlar (eski turkiy tilshunoslik);

III. XX asrning boshidan XX asrning 80-yillarigacha (formal o'zbek tilshunosligi); IV. XX asrning 80-yillaridan bugungi kungacha (substansial o'zbek tilshunosligi).⁴

I bosqichda tilshunoslikning rivojlanishi Mahmud Koshg'ariyning “Denonu lug'otit turk” asari bilan bog'liq. II bosqichda eski o'zbek tilshunosligi buyuk mutafakkir A. Navoiy, Z. M. Bobur, Mirzo Mehdixon kabi allomalarning asarlari va izlanishlari orqali shakllanadi. III bosqichda o'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi fan sifatida rivojlanadi. Bu davrda tilning rivojlanishiga A. Fitrat, U. Tursunov, Q. Ramazon kabi olimlarning o'z hissalarini qo'shishgan. IV bosqich esa hozirgi o'zbek davr tilshunosligiga to'g'ri keladi. O'zbekiston SSSR tarkibida bo'lgan vaqtda ya'ni 1926-yilda o'zbek xalqi yozuvidan lotin yozuviga o'tadi. Bu holga 1938-yilgacha kelib, yana o'zgartirish kiritiladi.

Ya'ni lotin yozuvidan krill yozuviga o'tiladi. Bu kabi o'zgarishlarning tez-tez takrorlanishi xalq orasida savod masalasida turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.⁵ Nihoyat, 1989-yil 21-oktabrda “O'zbek tili davlat tili to'g'risida” gi qonun qabul qilindi.⁶ Bu O'zbekistonning mustaqillik sari tashlagan ilk qadami edi. Chunki davlatning mustaqillik belgilaridan biri uning o'z tiliga ega bo'lishi edi. Ushbu qonun qabul qilingach, xalq orasida tilga bo'lgan e'tibor ancha oshdi. Ushbu qonunning 4-moddasida “O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga

⁴ R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “Hozirgi o'zbek adabiy tili” Toshkent - 2009;

⁵ <https://azkurs.org/samarqand-davlat-universiteti-v6.html?>

⁶ O'zbekiston Respublikasining “O'zbek tili davlat tili to'g'risida” gi qonuni 1989-yil 21-oktabr.

oshiriladi”, - deya ta’kidlanadi. Bu davlatimizning bag’rikengligidan darak beradi. Keyinchalik davlatimiz mustaqillikka erishgach, o’zbek tiliga e’tibor yanada kuchaydi. 1993-yilda krill alifbosidan o’zbek tiliga asoslangan lotin yozuviga o’tildi. Bu o’zgarish xalqimizga, lotin alifbosiga asoslangan o’zbek tilini o’zlashtirishda qulaylik yaratdi.

Xulosa qilib shuni aytamanki, til birligi uning erkin rivojlanishi millatning asosiy belgilaridan biridir. Har bir inson o’z tilini mukammal bilishi lozim. Chunki, har qanday millatning milliy, madaniy merosi aynan shu tilda o’z aksini topadi. Tildagi har bir boylikni o’rganish, dunyo tillarini o’rganib tahlil qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining “O’zbek tili davlat tili to’g’risida” gi qonuni 1989-yil 21-oktabr;
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni;
3. O’zbekiston Respublikasining “2020-2030-yillarda o’zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”;
4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “Hozirgi o’zbek adabiy tili” Toshkent - 2009;
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>;
6. <https://azkurs.org/samarqand-davlat-universiteti-v6.html>;